



JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

BITIRUVCHILAR BANDLIGI MONITORINGI HISOBOTI

2024/2025

**Bitiruvchilar bilan ishlash
va kasbiy rivojlanish
sektori tomonidan nashr
etilgan**



2024–2025 O‘QUV YILI BITIRUVCHILARINING BANDLIK DINAMIKASI

BAKALAVR

2024–2025 o‘quv yili davomida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti *Xalqaro huquq, Xalqaro munosabatlar* hamda *Xalqaro iqtisodiyot va menejment* fakultetlari bo‘yicha jami **383 nafar** talabani bitirdi. **2025-yil avgustidan 2026-yil yanvarigacha** bo‘lgan davrda bitiruvchilarning bandlik natijalari

monitoringi barqaror va ijobiy bandlik dinamikasini ko‘rsatmoqda. Bu esa Universitetning karyera qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda institutsional hamkorlik aloqalarining samaradorligini aks ettiradi.

Fakultetlar bo‘yicha bitiruvchilar soni (2024–2025)



2025-yil 31-avgust holatiga ko‘ra,

101 nafar bitiruvchi ish bilan ta'minlangan bo‘lib, bu jami bitiruvchilarning **26,4** foiziga teng. Mazkur bosqichda bitiruvchilarning hech biri magistratura bosqichida ta'limni davom ettirmagan. Fakultetlar kesimida bandlik taqsimoti shuni ko‘rsatadiki,

dastlabki ishga joylashish ko‘rsatkichlari *Xalqaro huquq* fakulteti bitiruvchilari orasida yuqoriroq bo‘lgan (**47 nafar**), undan keyin *Xalqaro iqtisodiyot va menejment* (**36 nafar**) hamda *Xalqaro munosabatlar* (**18 nafar**) bitiruvchilari qayd etilgan. Ushbu dastlabki ko‘rsatkich asosan bitiruvdan keyingi o‘tish davrini aks ettiradi, ya’ni ko‘plab bitiruvchilar hali faol ish qidirish jarayonida bo‘lgan.

2025-yil sentabr oyi yakuniga kelib, ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni **157 nafar**ga yetdi va bandlik darajasi **41,0** foizni tashkil etdi. Bu avgust oyiga nisbatan **56 nafar** bitiruvchining qo‘shimcha ravishda ishga joylashganini


anglatadi. Shu bilan birga, **56 nafar** bitiruvchi magistratura dasturlariga qabul qilindi, bu esa bitiruvdan keyingi yo‘nalishlarning diversifikatsiyalashganini ko‘rsatadi. Natijada, ish bilan ta‘minlangan yoki ta‘limni davom ettirayotgan bitiruvchilar soni **212 nafarga (55,4%)** yetdi.

2025-yil oktyabr oyida bandlik o‘shida davom etdi va ish bilan ta‘minlangan bitiruvchilar soni **173 nafarga (45,2%)** yetdi. Eng sezilarli o‘shish *Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakultetida* kuzatildi, bu esa iqtisodiy va boshqaruv kompetensiyalariga ega bitiruvchilarga mehnat bozorida talab yuqoriligini ko‘rsatadi.

2025-yil 30-noyabr holatiga ko‘ra, ish bilan ta‘minlangan bitiruvchilar soni **178** nafarga yetdi, **2025-yil 24-dekabr**ga kelib esa bu ko‘rsatkich **189 nafarga** yetib, jami bitiruvchilarning **49,3** foizini tashkil etdi. Sentabr oyiga nisbatan bu **32 nafar** bitiruvchiga **(+8,3%)** ko‘proq ekanini anglatadi, avgust oyiga nisbatan esa bandlik **88 nafarga oshgan** bo‘lib, bu barqaror ijobiy o‘shish tendensiyasini tasdiqlaydi.

Fakultetlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki:

Fakultetlar bo‘yicha ish bilan ta‘minlangan bitiruvchilar (2026-yil yanvar)



- *Xalqaro huquq* fakulteti ish bilan ta‘minlangan bitiruvchilar soni bo‘yicha eng yuqori mutlaq ko‘rsatkichni saqlab qoldi;
- *Xalqaro munosabatlar* fakulteti o‘rtacha, biroq barqaror o‘shishni namoyon etdi;
- *Xalqaro iqtisodiyot va menejment*


fakulteti esa vaqt o‘tishi bilan eng dinamik o‘shishni ko‘rsatdi.

Muhimi, ushbu davr mobaynida ta‘limni davom ettirayotgan bitiruvchilar soni barqaror saqlanib qoldi, bu esa bandlik va akademik rivojlanish o‘rtasida muvozanat mavjudligini ko‘rsatadi.

2026-yil 31-yanvar

holatiga ko'ra, monitoring davri davomida bandlik ko'rsatkichlari eng yuqori darajaga yetdi. Jami **192 nafar** bitiruvchi doimiy ish bilan ta'minlangan bo'lib, bu bakalavriyat bitiruvchilarining **50,1** foizini tashkil etadi.

Bitiruvchilar holati taqsimoti (2026-yil yanvar)



Shuningdek, **51 nafar** bitiruvchi (**13,3%**) ta'limni davom ettirmoqda, **10 nafari** (**2,6%**) bolani parvarishlash ta'tilida, **2 nafari** (**0,5%**) esa majburiy harbiy xizmatni o'tamoqda.

Ta'limni davom ettirayotgan bitiruvchilar (**68 nafar**), ijtimoiy ta'tilda bo'lganlar hamda harbiy xizmatni o'tayotganlar hisobga olinganda, umumiy bandlik va faoliyatga jalb etilganlik darajasi taxminan **73,3 foizga** yetdi. Ushbu ko'rsatkich Universitetning bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, karyera yo'naltirish va davlat hamda xususiy sektor ish beruvchilari bilan hamkorlik tizimi samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatadi.

2026-yil 31-yanvar holatiga ko'ra, **192 nafar** bakalavr bitiruvchisi doimiy ish bilan ta'minlangan. Ish bilan ta'minlangan bitiruvchilarning eng katta ulushi (**34,4%**) **davlat sektori va hukumat muassasalariga** to'g'ri keladi. Ular orasida *O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Bosh prokuratura*, umumiy va iqtisodiy yurisdiksiya sudlari, mahalliy hokimliklar hamda boshqa davlat idoralari mavjud.

Xususiy sektor bandligi **30,2 foizni** tashkil etib, xususiy kompaniyalar, konsalting va yuridik firmalar, logistika va savdo korxonalari hamda xizmat ko'rsatish tashkilotlarini qamrab oladi.


Moliyaviy sektor bitiruvchilarning **19,3 foizini** ish bilan ta'minlamoqda. Bular qatoriga tijorat banklari (masalan, *Asaka bank, Agrobank,*

Mikrokreditbank), *Markaziy bank*, *sug'urta kompaniyalari* hamda *Ernst & Young* kabi auditorlik kompaniyalaridagi lavozimlar kiradi.

Yuridik va sud-huquq sohasida bandlik **10,4 foizni** tashkil etib, bitiruvchilar advokatura idoralari, yuridik maslahat firmalari, sud organlari va prokuratura tizimida faoliyat yuritmoqda.

Nisbatan kichik, biroq barqaror ulush ta'lim va ilmiy-tadqiqot sohasida **(4,2%)** kuzatilmoqda, bunda bitiruvchilar oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, *xalqaro tashkilotlar va nodavlat notijorat tashkilotlari* **(1,6%)** sohasida ham bandlik mavjud bo'lib, ular qatoriga *BMT agentliklari* hamda turli xalqaro loyihalar kiradi.




MAGISTRATURA

2024–2025 o‘quv yilida *Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti* magistratura bosqichi talabalari bandlik holatini barcha fakultetlar va mutaxassisliklar kesimida kompleks baholashni amalga oshirdi.

Hisobot davrida magistratura bosqichida tahsil olgan talabalar soni jami **238 nafarni** tashkil etdi, shundan **138 nafari** ayollar (**58,0%**) va **100 nafari** erkaklar (**42,0%**) hisoblanadi.

Magistratura talabalari jinsiy tarkibi (2024–2025)



Jami **229 nafar** talaba olti ta akademik mutaxassislik bo‘yicha magistrlik darajasini tamomladi yoki unga sazovor bo‘ldi.

Umumiy bandlik monitoringi magistratura talabalari o‘rtasida mehnat bozoriga integratsiyaning juda yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi. O‘quv yili yakuniga ko‘ra, **216 nafar** talaba ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, bu umumiy bandlik darajasining **90,8 foizini** tashkil etadi. Shu bilan birga, **12 nafar** talaba (**5,0%**) vaqtincha ishsiz bo‘lgan, **10 nafar** talaba (**4,2%**) esa bolani parvarishlash yoki homiladorlik ta‘tilida bo‘lgan.

Shunday qilib, magistratura talabalarining **95,0 foizi** ish bilan ta‘minlangan yoki ijtimoiy himoya qilingan toifaga kiradi, bu esa JIDU magistratura dasturlarining kuchli professional yo‘naltirilganligini tasdiqlaydi.

I. Fakultetlar kesimidagi tahlil bandlik natijalarida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.


Amaliy siyosatshunoslik yo‘nalishida **30 nafar** talabadan **24** nafari ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, bandlik darajasi **80,0 foizni** tashkil etdi. **4 nafar talaba** (**13,3%**) vaqtincha ishsiz, **2 nafar** talaba (**6,7%**) esa bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lgan.

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar yo‘nalishida **31 nafar** talabadan **24 nafari** ish bilan ta‘minlangan (**77,4%**), **6 nafar** talaba (**19,4%**) vaqtincha ishsiz, **1 nafar** talaba (**3,2%**) esa bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lgan.

Yuridik va iqtisodiy yo‘nalishlarda esa bandlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. *Xalqaro biznes huquqi* yo‘nalishida **23 nafar** talabadan **22 nafari** ish bilan ta‘minlangan (**95,7%**), **1 nafar** talaba (**4,3%**) esa bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lgan.

Xalqaro huquq yo‘nalishida **28 nafar** talabadan **26 nafari** ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, bandlik darajasi **92,9 foizni** tashkil etgan. Qolgan **2 nafar** talaba (**7,2%**) ish bilan ta‘minlanmagan bo‘lib, ulardan biri vaqtincha ishsiz, biri esa bolani parvarishlash ta‘tilida bo‘lgan.

Eng yuqori bandlik ko‘rsatkichlari iqtisodiyot yo‘nalishlariga ixtisoslashgan dasturlarda qayd etildi.



Jahon iqtisodiyoti yo‘nalishida **78 nafar** talabadan **74 nafari** ish bilan ta‘minlangan bo‘lib, bandlik darajasi **94,9 foizni** tashkil etdi. **1 nafar** talaba (**1,3%**)

vaqtincha ishsiz bo'lgan, **3 nafar** talaba (**3,8%**) esa bolani parvarishlash ta'tilida bo'lgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishida **48 nafar** talabadan **46 nafari** ish bilan ta'minlangan bo'lib, **95,8 foizlik** ko'rsatkich bilan barcha fakultetlar orasida eng yuqori bandlik darajasi qayd etildi. **2 nafar** talaba (**4,2%**) bolani parvarishlash ta'tilida bo'lgan, vaqtincha ishsizlik holatlari esa kuzatilmagan.

II. Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan, *Tashqi iqtisodiy* faoliyat yo'nalishi eng yuqori bandlik darajasini (**95,8%**) namoyon etdi. Undan keyingi o'rinlarda *Xalqaro biznes huquqi* (**95,7%**) va *Jahon iqtisodiyoti* (**94,9%**) yo'nalishlari qayd etildi. Ushbu natijalar iqtisodiyot, xalqaro savdo va amaliy biznes tahlili sohalarida kompetensiyalarga ega bitiruvchilarga mehnat bozorida ayniqsa yuqori talab mavjudligini ko'rsatadi.

III. Sektoral tahlil ish bilan ta'minlangan magistratura talabalari milliy rivojlanishning muhim yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanganini ko'rsatadi.


Ish bilan ta'minlangan **216 nafar** talabadan **94 nafari** (**43,5%**) davlat va jamoat sektorida faoliyat yuritmoqda. Ular vazirliklar, davlat agentliklari, sud-huquq muassasalari hamda tartibga soluvchi organlarda ishlamoqda.

Xususiy sektor **78 nafar** talabani ish bilan ta'minlagan bo'lib, ular asosan *bank tizimi, konsalting, yuridik xizmatlar, logistika va sanoat korxonalarida* faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, **44 nafar** talaba ta'lim va ilmiy-tadqiqot sohasida, jumladan oliy ta'lim muassasalari, ilmiy institutlar hamda doktorantura dasturlarida faoliyat yuritmoqda.


Umuman olganda, **2024–2025** o'quv yili *JIDU*

Magistratura talabalari bandligining sektorl taqsimoti (2024–2025)



magistratura talabalari o'rtasida bandlik ko'rsatkichlarining barqaror yuqori va tizimli muvozanatlashgan darajada ekanini namoyon etadi. Fakultetlar kesimida, ayniqsa iqtisodiyot va huquq yo'nalishlarida yuqori bandlik darajalarining kuzatilishi universitet magistratura dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi va mehnat bozori talablariga mosligini tasdiqlaydi.

PhD BITIRUVCHILARI




Hisobot davrida *Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida* **2024 va 2025**-yillarda dasturlarini tamomlagan jami **16 nafar** tayanch doktorant va doktorant qayd etildi.

Shundan **6 nafar** doktorant **2024**-yilda, **10 nafar** bitiruvchi esa **2025**-yilda o'qishni yakunlagan.

Jinsiy tarkib nuqtai nazaridan, **2024-yilda** doktorantura bitiruvchilari erkaklar (3 nafar) va ayollar (3 nafar) o'rtasida teng taqsimlangan. **2025-yilda** esa bitiruvchilar tarkibi 3 nafar erkak va 7 nafar ayoldan iborat bo'lib, bu doktorantura bosqichida ayollar ishtirokining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Umumiy bandlik monitoringi PhD bitiruvchilari o'rtasida professional integratsiyaning yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

Jami **16 nafar doktorantura** bitiruvchisidan **12 nafari (75,0%)** hisobot davrida tasdiqlangan ish o'rniga ega bo'lgan, **nafari (25,0%)** esa bolani parvarishlash ta'tilida bo'lgan.




PhD bitiruvchilari orasida ishsizlik yoki harbiy xizmat holatlari qayd etilmagan. Bu esa JIDU doktorantura tayyorgarligining mehnat bozori talablariga mosligi hamda bandlik profilining barqaror ekanini ko'rsatadi.

Ish bilan ta'minlangan PhD bitiruvchilari bo'yicha sektoral tahlil ularning asosan ta'lim, ilmiy-tadqiqot va davlat siyosatiga yo'naltirilgan muassasalarda jamlanganini ko'rsatadi.

Ta'lim va akademik sektor bandlikning asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jami **7 nafar** bitiruvchi (umumiy kohortaning **43,8 foizi** va ish bilan ta'minlanganlarning **58,3 foizi**) JIDU hamda boshqa oliy ta'lim muassasalarida, jumladan Guliston davlat universitetida o'qituvchi, katta o'qituvchi yoki dotsent lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Bu JIDU doktorantura dasturlarining kuchli akademik yo'naltirilganligini va ularning milliy oliy ta'lim salohiyatini mustahkamlashga bevosita hissa qo'shayotganini aks ettiradi.

Davlat va jamoat ilmiy-tadqiqot sektori esa **4 nafar** doktorantura bitiruvchisini (umumiy kohortaning **25,0 foizi**) ish bilan ta'minlagan. Ushbu bitiruvchilar siyosatga yo'naltirilgan va tahliliy muassasalarda, jumladan *Taraqqiyot strategiyasi markazi, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti hamda Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Tashqi siyosat tadqiqotlari va xalqaro tashabbuslar markazida* faoliyat olib bormoqda.

Mazkur taqsimot JIDUning milliy boshqaruv tizimi, strategik rejalashtirish va tashqi siyosat tahlili uchun yuqori malakali tadqiqotchilar va ekspertlarni tayyorlashdagi muhim rolini ko'rsatadi.



Xususiy sektorda bandlik **1 nafar** bitiruvchi (**6,3%**) bilan ifodalanadi. U xususiy korxonada Rivojlanish va investitsiyalar bo'yicha direktor lavozimida faoliyat yuritmoqda. Son jihatidan kam bo'lishiga qaramay, ushbu holat doktorantura darajasidagi kompetensiyalar biznesni

rivojlantirish va strategik iqtisodiy boshqaruv sohalarida ham samarali qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Mutaxassisliklar kesimida tahlil shuni ko‘rsatadiki, ish bilan ta‘minlangan doktorantura bitiruvchilarining eng katta qismi *Xalqaro munosabatlar va jahon hamda mintaqaviy rivojlanishning siyosiy muammolari* (23.00.04) hamda *Jahon iqtisodiyoti* (08.00.09) yo‘nalishlariga to‘g‘ri keladi — har birida **5 nafardan** ish bilan ta‘minlangan bitiruvchi mavjud.

Xalqaro huquq (12.00.10) hamda *Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi* (07.00.05) yo‘nalishlarida bandlik ko‘rsatkichlari nisbatan kamroq bo‘lsa-da, barqaror xususiyatga ega bo‘lib, asosan akademik va ilmiy-tadqiqot sohalarida jamlangan, shuningdek bolani parvarishlash ta‘tili holatlari ham qayd etilgan.